

IFODALI O'QISHDA NUQTA, PAUZA, RITMLARNING O'RNI

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Hayitova Jasmina Hayatovna

E-mail: jasminahayitova80@gmail.com

+99895 526 72 73

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ifodali o'qishda nuqta, pauza va ritmlarning nutq jarayonidagi o'rni, ularning mazmunni ochish, matnning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytirish, tinglovchida estetika va mazmunni anglash imkonini yaratishdagi funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida nuqta va pauzalarning sintaktik va semantik vazifalari, ritmning nutq ohangini shakllantirishdagi roli, shuningdek, o'quvchi nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ifodali o'qish jarayonida nuqta, pauza va ritmlar nutqning musiqiyligi, mazmundorligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy vositalardan hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *ifodali o'qish; nuqta; pauza; nutq ritmi; intonatsiya; fonetika; ekspressivlik; tinglovchi qabul qilishi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль точки, паузы и ритма в процессе выразительного чтения, их функции в раскрытии содержания, усилении эмоционально-экспрессивности текста и восприятии слушателем. В исследовании анализируются синтаксические и семантические особенности пауз, ритмическое построение речи и их значение в формировании культуры устной речи. Результаты показывают, что точка, пауза и ритм являются важнейшими средствами обеспечения музыкальности, содержательности и выразительности текста в художественном чтении.*

Ключевые слова: *выразительное чтение; точка; пауза; ритм речи;*

интонация; фонетика; экспрессивность.

Abstract: *This article examines the role of full stops, pauses, and rhythm in expressive reading, focusing on their functions in revealing meaning, enhancing emotional expressiveness, and improving listeners' comprehension. The research analyzes the syntactic and semantic importance of pauses, the role of rhythm in forming the melodic structure of speech, and their significance in developing the culture of oral reading. The results demonstrate that full stops, pauses, and rhythm are essential tools that ensure the musicality, meaningfulness, and expressiveness of artistic reading.*

Key words: *expressive reading; full stop; pause; rhythm; intonation; phonetics; expressiveness.*

Ifodali o'qish o'zbek adabiyotini o'rganishda, ta'lim jarayonida va nutq madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Badiiy matnni ohangdor, mazmunan aniq, tinglovchiga ta'sir etuvchi tarzda o'qish uchun intonatsiya, pauza, ritm kabi fonetik vositalar muhim sanaladi. Ayniqsa, nuqta, turli xil pauzalar va ritmning o'zni matn mazmunini ochishda, muallif g'oyasini yetkazishda, obrazlar dunyosini jonlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qish – bu matnni shunchaki ovoz chiqarib o'qish jarayoni emas, balki uning mazmuni, kayfiyati va emotsional rang-barangligini to'liq ochib berishga xizmat qiluvchi murakkab nutqiy faoliyatdir. O'quvchi yoki o'qituvchi matnni ifoda bilan yetkazganida tinglovchi tafakkuri faollashadi, g'oya chuqurroq anglanadi, matnning badiiy-estetik qiymatidan yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Ifodali o'qishning asosiy tarkibiy unsurlari bo'lgan nuqta, pauza va ritm esa shu jarayonning tabiiy etuvchilaridir. Nuqtaning to'g'ri qo'llanilishi fikr tugallanganligini bildirsa, pauza matn ichidagi mazmuniy bo'linmalarni ajratishga, ritm esa matnning ohangdorlik va ravonlik darajasini ta'minlashga xizmat qiladi. Ifodali o'qishning ilmiy-nazariy asoslari fonetika, stilistika, psixolingvistika va nutq madaniyati yo'nalishlarida keng yoritilgan bo'lsa-da, ta'lim jarayonida ushbu vositalarning amaliy qo'llanishi va ularning o'quvchi ongida qanday semantik-emotsional ta'sir uyg'otishi yanada chuqur tahlil qilinishini talab qiladi. Ifodali o'qish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda

(Saidov, Hojiev, Rahmonov va boshqalar) nuqta va pauzalarning sintaktik belgi sifatidagi o'рни, nutqning mazmuniy bo'linishi va ritmning badiiy-estetik vazifalari e'tirof etilgan. G'afforova, Shodmonov kabi tadqiqotchilar esa ekspressiv nutqda intonatsiya elementlarini pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilganlar. Ikromova, Zunnunov kabi adabiyotshunoslar badiiy matnda pauza va ritmning obraz va kayfiyat yaratishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Umumiy xulosalardan ma'lum bo'ladiki, fonetik vositalar matnni jonlantirish, o'quvchi tasavvurini boyitish va mazmunning chuqur qatlamlarini ochishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy lingvistika, pedagogika va psixolingvistika tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'qish jarayonida pauzalarni oqilona qo'yish, ritmni to'g'ri ushlash va tinish belgilariga mos ohang tanlash o'quvchi nutqining ravonligi hamda matnni tushunish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, badiiy matnlarni o'qishda pauza va ritmdan foydalana olish obraz va voqealarning tasviriy kuchini kuchaytiradi, tinglovchi diqqatini muhim nuqtalarda jamlaydi va matnning ma'no qatlamlarini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ifodali o'qishda nuqta, pauza, va ritmning o'рни nafaqat texnikasi, balki o'quvchining umumiy nutq madaniyati, tafakkur faolligi hamda badiiy didini shakllantirish jarayonida ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada ushbu omillarning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va ta'lim jarayonidagi o'рни tahlil qilinadi.

Ifodali o'qishda nuqtaning o'рни. Nuqta – yozma nutqda fikrning tugallanganligini bildiruvchi asosiy tinish belgisidir. Ifodali o'qishda nuqta faqat Grammatik belgi sifatida emas, balki ohangni boshqaruvchi, matn mazmunini tinglovchiga to'g'ri yetkazuvchi muhim prosodic vosita sifatida xizmat qiladi. To'g'ri qo'yilgan nuqta o'qish jarayonining ritmini belgilaydi, matn ichidagi fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni aniq ko'rsatadi va tinglovchi ongida fikrning yaxlit idrok etilishiga yordam beradi. Ifodali o'qishda nuqtaning o'рни juda muhim bo'lib, u matnning mazmuni va ohangini to'g'ri yetkazishga xizmat qiladi. Nuqta yozma nutqda fikrning tugalligini bildiruvchi asosiy belgi sanaladi, ammo ifodali o'qishda u bundan ham kengroq vazifani bajaradi. Har bir nuqtadan keyin

bajariladigan tabiiy pauza tinglovchiga fikrni yaxlit idrok etish, matn mazmunini bosqichma-bosqich qabul qilish va mantiqiy tuzilmani aniq anglash imkonini beradi. O'quvchi nuqtani e'tiborsiz o'qib o'tsa, gaplar bir-biriga ulanib ketadi, matnning ritmi buziladi va tinglovchi matnni tushunishda qiyinchilikka duch keladi. Nuqta ohangni boshqarishda ham asosiy vosita bo'lib, ugap oxirida ovozning pasayishini, fikrning tugaganini va keying jumлага yangi mazmun bilan o'tishini bildiradi. Ayniqsa badiiy matnlarda nuqtaning o'rni yanada sezilarli bo'lib, u tasir, obraz va voqealarning emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Nuqta yordamida matn ichidagi mazmuniy bo'linmalar ajraladi, o'qish tempiga muvozanat kiradi, tinglovchi esa muhim fikrlarni alohida eslab qoladi. Shu bois ifodali o'qishni o'rgatishda nuqtani to'g'ri qo'llash, unda to'xtay bilish va ohangni mos ravishda pasaytirish o'quvchi nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Pauza - o'qish yoki nutq jarayonida ma'lum maqsadda qilinadigan qisqa yoki biroz uzun tanaffus. U o'qishning mantiqiyligini, ohangdorligini va ta'sirchanligini ta'minlaydi. Ifodali o'qishda pauza matn mazmunini tinglovchiga ravshan va ta'sirchan tarzda yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Pauza – nutq yoki o'qish jarayonida ma'lum maqsad bilan qilinadigan tanaffus bo'lib, u fikrning mantiqiyligi, ohangdorligi va tushunarligini ta'minlaydi. Ifodali o'qishda pauza asosan grammatik, mantiqiy, psixologik va orfoepik holatlarda qo'llaniladi. Grammatik pauza tinish belgilariga asoslanadi: nuqta o'rnida uzun, vergul o'rnida qisqa, nuqtali va ikki nuqta oldida o'rtacha, tire oldida esa mazmuniy bo'linishni bildiruvchi pauza qilinadi. Mantiqiy pauza esa gapning mazmunidan kelib chiqibqo'llanadi; muhim so'z yoki fikrni ajratish, qarama – qarshi ma'noli bo'laklarni ta'kidlash uchuntanaffus qilish o'qishning ta'sirchanligini oshiradi. Psixologik pauza matndagi his – tuyg'uni kuchaytirish, dramatik holatlarni berish uchun ishlatiladi; hayrat, qo'rquv yoki quvonch kabi holatlar o'qishda tabiiy pauza bilan ifodalanadi. Orfoepik pauza esa talaffuzni to'g'rilashga xizmat qiladi: uzun gaplarni o'qishda nafasni rastlash yoki undoshlarning qiyin ketma – ketligida pauza qilish nutqni ravonlashtirish. Pauzaning uzunligi ham farqlanadi: qisqa pauza – vergul o'rnida, o'rtacha pauza – nuqtali vergul va ikki nuqta oldida, uzoq pauza –

nuqta yoki fikr tugagandan keyin qo'llanadi. Pauza doimo maqsadli bo'lib, u o'qishni to'xtatish emas, balki mazmunni to'g'ri yetkazish vositasidir. Pauza ohang bilan bevosita bog'liq: ohang ko'tarilishidan oldin qisqa, mazmun tugashidan oldin chuqur va uzun pauza ishlatiladi. Yaxshi qo'yilgan pauza tinglovchining idrokini yengillashtiradi, matnni bo'laklarga ajratadi, e'tiborni karakli nuqtalarga jamlaydi va o'qishni ta'sirchan qiladi. Shu boisdan pazamifodali o'qishning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, matn mazmunining to'liq anglanishiga xizmat qiladi.

Ifodali o'qishda ritmning o'rni. Ritm – nutq, she'r yoki musiqa tarkibidagi tovushlar, urg'ular, ohang va pauzalarning ma'lum tartibda, takrorlanib keladigan muvozanatli ketma – ketligidir. Ritm matnga yoki nutqqa harakat, uyg'unlik va ravonlik baxsh etadi. She'riy nutqda ritm satr uzunligi, urg'u joylashuvi, pauzalar va qofiya orqali vujudga keladi. Ritmning asosiy vazifasi – matnning ohangdorgini ta'minlash, mazmunni estetik his qilishga yordam berish va tinglovchi e'tiborini ushlab turishdir. Ifodali o'qishda ritmning ya'ni qofiyaning o'rni juda muhim bo'lib, u she'riy matnning musiqiyliigi, ohangi va mazmuniy yaxlitligini ta'minlaydi. Qofiya she'rdagi satrlarning oxirida takrorlanib keladigan tovushlar uyg'unligidir. Ifodali o'qishda ritmni to'g'ri his qilish va uni mazmun bilan uyg'un o'qish tinglovchiga matnni yanada yoqimli va tushunarli qiladi. Ritm she'rning ritmini belgilaydi, o'qish jarayoida ma'lum ohangni, tezlikni va talaffuz uslubini shakllantiradi. Qofiyalar musiqiylik yaratgani uchun o'qishda ohangning ko'tarilishi yoki pasayishini tabiiy ravishda boshqarib turadi; o'quvchi satr oxiridagi qofiya sababli ohangni birdan tushirmay, yumshoq tugatadi yoki keying satr bilan uyg'un davom ettiradi. Ritm tinglovchi e'tiborini jamlashga ham yordam beradi: satrlar oxiridagi ohangdorlik eshituvchida ritmik kutish uyg'otadi va she'rning mazmunini yaxshiroq qabul qilishga imkon yaratadi. Qofiya nafaqat tovush uyg'unligi, balki ma'no uyg'unligi hamdir; shuning uchun ifodali o'qishda ritmlanadigan so'zlarning ma'nosiga urg'u berish, zarur joylarda pazani to'g'ri qo'yish she'rning mazmunni yanada teranlashtiradi. Ritm ohangdorlikni kuchaytirib, matnga emotsional rang beradi: lirik she'rlarda muloyimlik va mayin ohang yuzaga keladi. Demak, ifodali o'qishda ritm she'rning ritmi, intonatsiyasi, musiqiyliigi, emotsiyasi va mazmuniy

yaxlitligini ta'minlaydigan asosiy vositalaridan biridir. Qofiyani sezib o'qish she'rning go'zalligini ochib beradi va tinglovchiga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi. Ifodali o'qishda nuqtaning o'rni. Nuqta gapning sintaktik yakunini bildiruvchi belgi bo'lishdan tashqari: fikrning tugallanganligini anglatadi; o'qishda to'xtash (tanaffus) zaruriyati tug'iladi; ritmik ohangni tartibga soladi; emotsional oqimning tabiiy tugashi yoki o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ifodali o'qishda nuqta 1–1,5 sekundlik pauzani talab qiladi. Bu pauza tinglovchiga o'qilgan mazmunni anglash imkonini beradi. Nuqta, pauza va ritmning nutq ekspressivligidagi umumiy vazifasi Ular birgalikda:

- matnning mazmuniy qatlamlarini ochadi,
- muallif niyatini to'liq yetkazadi,
- tinglovchini matnga hissiy jihatdan jalb etadi,
- badiiy ohangni kuchaytiradi,
- nutqning tabiiyligini saqlaydi.

O'qiydigan shaxs uchun bu vositalarni ongli qo'llash — nutq madaniyatining muhim ko'rsatkichidir. Ifodali o'qishda nuqta, pauza va ritmlar matnning semantik, sintaktik va emotsional qatlamlarini ochishda bir-birini to'ldiruvchi muhim vositalardir. Nuqta fikr yakunini anglatib, tinglovchiga mazmunni anglash imkonini bersa, pauza nutqni fazoviy va mantiqiy jihatdan bo'lib beradi, ritm esa ohangdorlik, musiqiylik va obrazlilikni ta'minlaydi. Ushbu vositalarning uyg'un qo'llanishi o'quvchi nutqini yuksak madaniyat darajasiga ko'taradi.

Pedagogik amaliyot uchun tavsiya sifatida, o'quvchilarda ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirishda pauza turlari, ritmik bo'linmalar, intonatsion o'zgarishlar bo'yicha maxsus mashqlarni ko'paytirish zarur. Bu esa ularning nutqini ongli, ravon va ta'sirchan qilishga xizmat qiladi. Ifodali o'qishda ritm she'riy matnning ohangdorligi, musiqiyliigi va ta'sirchanligini belgilovchi eng muhim unsurlardan biridir. Ritmning tartibli urg'ular, pauzalar va tovush takrorlari asosida shakllanishi o'qish jarayoniga ravonlik, uyg'unlik va estetik joziba baxsh etadi. To'g'ri berilgan ritm tinglovchining e'tiborini jamlaydi, matn mazmunini yanada chuqurroq his etishga yordam beradi va she'rning emotsional kuchini

oshiradi. Shu sababli ritmni sezib o'qish, uning tabiiy oqimini buzmaslik ifodali o'qishning asosiy talabi bo'lib, badiiy matnning go'zalligini to'la ochib berishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ifodali o'qish jarayonida nuqta, pauza va ritm nutqning mazmuniy va emotsional qatlamlarini ochib berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nuqta gapning tugallanganligini belgilab, intonatsiya pasayishi orqali tinglovchiga mazmunni idrok etish imkonini yaratadi. Pauza esa matnning mazmuniy bo'linmalarini ajratish, fikr urg'usini belgilash va obrazning ichki holatini ifodalashda markaziy vosita sifatida xizmat qiladi. Ritmning uyg'un qo'llanilishi esa matnga musiqiylik, ohangdorlik, ravonlik bag'ishlab, badiiy tasirchanlikni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari mavjud metodik amaliyotda nuqta, pauza va ritmning imkoniyatlari yetarlicha to'liq qo'llanmayotganini ko'rsatdi. Ifodali o'qish jarayonida ushbu fonetik vositalardan ongli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda foydalanish o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda, matn mazmunini chuqur anglashda hamda badiiy-estetik idrokini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, nuqta, pauza va ritmlar nafaqat fonetik birlik sifatida, balki matnning semantik strukturasini yorituvchi, muallif g'oyasini ifodalovchi va tinglovchi hissiyotini boshqaruvchi lingvopoetik vosita sifatida qaralishi kerakligi aniqlandi. Ushbu elementlarning to'g'ri qo'llanishi matnning ta'sirchanligini oshiradi, tinglovchining e'tiborini faol ushlab turadi hamda badiiy asarning estetik mohiyatini to'liqroq namoyon etishga imkon yaratadi. Shu bois ifodali o'qish darslarida nuqta, pauza va ritmning turlari, ularning fonetik xususiyatlari, semantik yuklamalari va emotsional imkoniyatlari bo'yicha maxsus mashq va metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

Bu esa ta'lim jarayonida nafaqat o'quvchilarning o'qish texnikasini, balki ularning fikrlash, his qilish va badiiy matnni estetik idrok etish kompetensiyalarini ham kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Abduazizov A. A.** *O'zbek tili fonetikasi.* – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. – 256 b.

2. **G'ulomov A., Asqarova M.** *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 312 b.
3. **Sodiqov Q., Doniyorov X.** *Nutq madaniyati va ifodali o'qish*. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 184 b.
4. **Mamatqulova D.** *Ifodali o'qish metodikasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 140 b.
5. **Abdullayev F.** “Badiiy matn intonatsiyasining lingvopoetik xususiyatlari”. // *Filologiya masalalari*, №3, 2019. – B. 56–63.
6. **Normurodova N. I.** *O'zbek tili stilistikasi*. – Toshkent: Universitet, 2020. – 228 b.
7. **Bozorov O.** “Ifodali o'qishda pauza va ritmning o'rni”. // *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 2021, №4. – B. 112–118.
8. **Crystal D.** *Prosodic Systems and Intonation in English*. – Oxford: Oxford University Press, 1976. – 310 p.
9. **Roach P.** *English Phonetics and Phonology*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013 (4th ed.). – 256 p.
10. **Chafe W.** *Discourse, Consciousness, and Time: The Flow and Displacement of Conscious Experience in Speaking and Writing*. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. – 332 p.